



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TIBBIYOTNING RIVOJLANISHI

Boymirzayeva Xurshida Sobirovna

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasii
o'qituvchisi*

Abdurashidov Asilbek Abdurashidovich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 1-son davolash fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida tibbiyotning rivojlanishi, tabobat ilmiga, davolash, orastalik ishlariga, bu sohadagi qurilishlarga katta ahamiyat berilganligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *tibbiyot, tabobat, tabiblar, Mavlono Fazlulloh Tabriziy, Temuriylar davri tabiblari.*

Amir Temur va temuriylar davrida orastalik hamda ozodalik birlamchi masalalardan bo'lgan. Biz bu ozodalikni Sohibqironning o'z askarlariga qo'llagan chora-tadbirlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Yurtimiz muzeylari ekspozitsiya zallarida aynan temuriylar davri askarlarining o'ziga tegishli bo'lgan idish-tovoqlari namoyish etilgan. Amir Temur har bir jang oldidan askarlarining sog'lig'ini tekshirib, har bir askarning o'zigagina tegishli bo'lgan shaxsiy buyumlari bilan ham qurollanishini nazorat qilgan. Bundan tashqari, Sohibqiron kelin tanlashga alohida e'tibor bergan. Chunki, kelinlar nasl davom ettiruvchi ekanliklarini inobatga olgan holda, ularning ham jismonan, ham ma'nan sog'lomliklarini alohida tekshirgan.

Xalqni ichimlik suv bilan ta'minlash uchun ko'pgina hovuz, kanal, ariqlar qazilgan. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Amir Temur va Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar tez-tez tarqab turar edi. Buning oldini olish uchun kerakli choralar ko'rilgan. Xususan, tozalikka katta ahamiyat berilgan, ayniqsa ariq va hovuzlardagi suvlar nihoyatda toza tutilgan. Shu sababdanmi, shifoxonalarning shimol tarafida Doral-huffoz orasida hovuz bo'lib, unda tabiblar bemorlarni davolar edilar. Temuriylar davri tabobatida asosan Ibn Sino ko'rsatmalariga rioya qilingan. Tabiblar shahzodalarga atab, asarlar yozishgan.

Ana shunday asarlardan biri, temuriylar davrining mashhur tabiblaridan biri hisoblanmish Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad Yusuf ibn Faqih Ilyosning "Tashrix-i Mansuri" deb nomlangan, Amir Temurning nabirasi Pir Muhammad Bahodirga bag'ishlangan, "Risola dar tashrix-i badan-i inson" ("Inson anatomiyasiga oid risola") asari shular jumlasidan. Uning muqaddimasida odam tanasining turli a'zolari, jumladan suyak, asab, muskullar va qon tomirlar tasvirlangan. Temuriylar davri tabobat ilmiga oid adabiyotlar o'rganilinar ekan, bularda asosan inson ruhiyati, anatomiyasi va qon tomirlariga oid kasalliklar yozilganligini aytish mumkin.



Ma'lumki, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" (XI) va undan keyingi tibbiy asarlar arab tilida yozilgan. Temuriylar davrida esa tibbiy asarlar Movarounnahr va Xurosonda yozilganligi sababli fors tilida edi. Xuddi shu davrlardan ilmiy atamalarga mahalliy o'simlik va dorilarning fors tilidagi nomlari ham kiritila boshlangan. Aynan temuriylar davrida "Tib qonunlari"ning turli qismlariga ko'plab sharhlar, qisqartmalar yozilganligi ham shu davrning o'ziga xos jihatlaridan biridir.

Bundan tashqari, temuriylar davrida aynan shahzodalar uchun yasalgan piyolalar, idishlarning qanday metallardan yasalishiga ham alohida e'tibor qaratishgan. Ana shunday buyumlar sarasiga nefritni kiritish joizdir. Bizga ma'lumki, nefrit toshining kelib chiqishi X asrda Xitoyga borib taqaladi. Xitoyliklar uni "G'alaba toshi" deb taqib yurishgan. Nefritning oq, yashil, qora ranglari bizga ma'lum. Biz ma'lumot bermoqchi bo'lgan, nefrit piyolalar temuriy shahzoda Mirzo Ulug'bekka tegishli bo'lib, hozirda u Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Bu piyolalarning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, ulardan shahzodalarni tashqi xavfdan himoyalash maqsadida ham foydalanilgan. Ya'ni, nefrit piyolalar zaharni fosh qilish xususiyatiga ega bo'lgan. Agar piyolalarga zahar solingudek bo'lsa, ularning rangi o'zgargan.

Mirzo Ulug'bekka tegishli nefritdan yasalgan buyumlar. Markaziy Osiyo, XIV asr. London, Britaniya muzeyi. Markaziy Osiyo, 1400-1450-yillar. Nefrit, o'lchamlari: 6.5x15.5x12.3 sm. Inventar raqami 1961.2-13.1. Piyolaning to'q rangli, sirtining tekisligi tutqichida ajdar tasviri ishlanganligi tomoshabinda uni bir ushlab ko'rish ishtiyoqini uyg'otadi. Bu tutqich mo'g'ullarning egar-jabduqlariga ishlangan ajdaho tasviridan andaza olib yasalgan. Mo'g'ullarning oltindan, kumushdan yasalgan xuddi shunday ajdar tasvirli idishlari tarixdan bizga ma'lum, ammo ular shubhasiz nefritdan yasalgan. Shunga o'xshash Hindistonda saqlanayotgan yana bir idish bizga ma'lum va unga "Ulug'bek Ko'ragon" ismi o'yib yozilgan, keyinroq esa 1611-yili temuriy shahzoda Jahongir uning dastasini yo'ndirib qayta ishlov berdirgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Amir Temur va temuriylar davrida barcha sohalar keng rivojlangani kabi, tibbiyot ilmi ham jadal rivojlangan. Tabiblardan insonlarni dori darmon, shifobahsh giyohlar yordamida davolash bilan bir qatorda, ularni vahimaga solib qo'ymaslik uchun ruhiy davolash yo'llarini qo'llash ham talab qilingan.

Sohibqiron davrida har bir shaharda shifoxona bo'lgan, ularda bilimli va tajribali tabiblar ishlaganlar. Jumladan, Samarqandda "Dor ush-shifo" nomli yirik kasalxona bo'lib, unga o'z zamonasining taniqli tabibi Mir Sayyid Sharif Sheroziy (1330-1414-y.y.) rahbarlik qilgan. Bu tabib asli jurjonlik bo'lib, Amir Temurning taklifi bilan Samarqandga kelib, shu kasalxonaga boshchilik qilgan. Shu davrlar yirik tabiblardan Xisomiddin Ibrohim Kirmoniy, Mavlono Fayzulloh Tabriziy, Mansur ibn Muhammadlar yashab ijod etganlar. Tarixiy ma'lumotlarda



ta'kidlanishicha, Mavlono Fayzulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan. U Sohibqironning barcha safarlarida birga bo'lar edi.

Amir Temur davrida tibbiyot fani shu qadar yuksak darajaga ko'tarilgan ediki, hatto o'lgan odamning jasadini balzamlash usulini ham bilganlar. 1941-yilning 18-iyunida hukumat komissiyasi tomonidan Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasida dafn etilgan Sohibqiron Amir Temur, Mironshox, Shohruh, Mirzo Ulug'bek, Muhammad Sulton va Bibixonim maqbarasidagi bibixonimning daxmalari ochilib ko'rilganda, ularning jasadi mumiyolangani aniqlangan.

Amir Temur aholi o'rtasida har xil kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalishiga qarshi tadbirlarni ham amalga oshirgan. Buning uchun shaharlarni va boshqa aholi yashaydigan joylarni ozoda saqlash, xalqni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash choralarni amalga oshirgan. Suvni toza saqlash uchun usti yopiq suv quvurlari qurdirgan. Shaharlar o'rtasidagi yo'llarda sardobalar barpo ettirgan. Samarqandda va Toshkent yaqinidagi Shohruhiya shaharlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida shunday inshootlarni arxeologlar ko'p uchratganlar.

Bunday yuksalish, ayniqsa, Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay Ko'ragoniy) zamonasida ham davom etdi. Ulug'bek Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda o'nlab masjidlar, hammomlar, karvonsaroylar, yo'llar, shifoxonalar qurdirtdi. Bularning ichida eng mashhuri 1424–1428-yillari Samarqand yaqinidagi Obi-Rahmat yoqasida qurilgan rasadxonadir.

Fan va madaniyat homiysi bo'lgan Mirzo Ulug'bek tibbiyot ilmiga ham katta ahamiyat bergan. Samarqandda bir kasalxonaga qurdirib, unda ishlash uchun Eronning Kirmon shahridan mashhur tabib Burhonuddin Nafis ibn Avaz (ba'zi manbalarda Ivaz) Hakim al-Kirmoniyini taklif etgan. Bu tabib Ulug'bekning saroy tabibi vazifasini bajargan. U Samarqand kasalxonasida bemorlarni davolash bilan birga, tibbiyotga oid bir qancha asarlar ham yozgan. "Dori tayyorlash sa'nati" nomli kitobida muallif oddiy va murakkab dorilar retseptini tuzish, ularni tayyorlash va ishlatish usullarini bayon etgan.

Mirzo Ulug'bek davrida tabiblar o'rtasida mohir jarrohlarning ham bo'lgan. Ulardan biri Tojiddin Hakim edi. Bu jarroh ancha murakkab operatsiyalarni ham qilgan. Masalan, ko'z kataraktasini jarrohlik yo'li bilan muvaffaqiyatli davolagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu tabib operatsiyadan oldin jarrohlik asboblarni o't (olov) ustida qizdirib olib, so'ng ishlatgan. Operatsiya vaqtida esa qo'lini tez-tez mayda qilib to'g'ralgan piyozga botirib olarkan. Ma'lumki, piyozda mikroblarni o'ldiruvchi fitotsidlar bo'ladi. O't ustida qizdirilgan asbob esa tamomila mikrobdan holi bo'ladi (sterilizatsiyalanadi). Bundan ma'lum bo'ladiki, Tojiddin Hakim yarani aynatuvchi jonzodlar mavjudligini bilgan va ularning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun yuqoridagi aytilgan chorani ko'rgan. Bu jihatdan, Tojiddin Hakimni O'rta Osiyoda antiseptika usulining asoschisi, desa bo'ladi.



Demak, Ulug'bek davrida ilm-fan ancha yuksalganki, yuqorida nomlari keltirilgan mashhur tabibalar paydo bo'ldi.

Bu an'ana temuriylar sulolasining yana bir vakili – Husayn Boyqaro hukumronlik qilgan davrda ham davom etdi. Husayn Boyqaro saroyida bosh vazirlik lavozimini egallagan buyuk shoir va davlat arbobi – Alisher Navoiyning xizmatlari katta. Bu haqida sharqshunos olimlar Mahmud Hasaniy va Surayyo Karimova muallifligida yozilgan “Navoiy davri tabobati” nomli asarda batafsil bayon etilgan.

Navoiy o'zi tabib bo'lmasa ham o'tmishdagi buyuk tabiblarning asarlarini sevib o'qigan, ular haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirgan. Uning shaxsiy kutubxonasida Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy va boshqa tabiblarning kitoblari bo'lgan. Navoiy Ibn Sinoga juda yuksak baho bergan. Uni aql-idrok va tafakkur ramzi, deb atagan. Navoiyning tabiblar va tibbiyot haqidagi fikrlari asosan uning mashhur asari “Mahbub ul-qulub”da bayon etilgan. Bu asarda Navoiy tibbiyot va tabiblar masalasiga maxsus bob (15-bobni) bag'ishlagan. Asar Navoiy hayotining so'nggi yillarida yozilgan bo'lib, uzoq yillar davomida to'plagan hayotiy tajribalari mahsulidir. Asarning asosiy g'oyalari insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, yaxshilik va xalq farovonligi haqida qayg'urishdir. Shu sababli, kitobning tabiblar haqidagi fasli unda asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Navoiy bu faslni bayon etishga kirishar ekan, avvalo tabibning o'zi qanday kishi bo'lishi kerak, u qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozimligi haqida to'xtaladi. Navoiyning ta'kidlashicha, tabib o'z fanining mohir bilimdoni bo'lishi kerak. U donishmandlar so'ziga amal qilib, ularga ergashmog'i lozim, muloyim so'z va bemor ko'nglini ko'taruvchi, andishali, xushfe'l bo'lmog'i kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, Navoiy tabiblar oldiga juda mas'uliyatli talablar qo'ygan. Darhaqiqat, tabib o'z kasbining mohir bilimdoni bo'lishi kerak. Agar u o'z kasbini yaxshi o'zlashtirmagan bo'lsa sayoz fikrli, tajribasiz tabib bo'lsa, qanday qilib bemorning kasalini aniqlay oladi, kasallik aniqlay olmagan tabib, uni davolay oymaydi ham. Bunga Navoiy alohida e'tibor bergan.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan tarixiy ma'lumotlar asosida biz Temur va temuriylar davrida mamlakatdagi umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham yaxshi rivoj topganining guvohi bo'ldik. Shaharlarda kasalxonalar, tibbiy maktablar, kutubxonalar qurildi. O'nlab mashhur tabiblar yetishib chiqdi. Ular bemorlarni davolash bilan birga, tibbiyotga oid ilmiy asarlar ham yozishgan. Bu nodir va noyob asarlarni o'rganish, ularni bugungi kun tibbiyot rivojiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur jahon tarixida. BMT. YUNESKO. Parij, 1996, - B. 119-128, 256-293.
2. Hayetmetov A. “Ma'naviyat yulduzlari” - T., 2001. - B. 220.



3. Boboyev X.B. Amir Temur va temuriylar saltanati. - T.: Kamalak, 1996. - 200 b.
4. Azimov E. Amir Temur saltanati. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. -88 b.
5. Axmedov B. Temur tuzuklari haqida ikki og'iz so'z // Sharq yulduzi. - T. 1989. -№8. - B. 132.
6. Axmedov N., Badirov A. Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga kirish (ma'ruzalar matni). - Samarqand: Zarafshon, 1999. - 74 b.
7. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan tarjima va izohlar muallifi B.Ermatov. - T.: Ma'naviyat, 1999. - 224 b.
8. F. Kamoliddinov.(2021). Саудия Арабистонининг АОПЕК ташкилотигадаги етакчилик мавкеи ва унинг ташкилот фаолиятига таъсири. Хорижий Шарк мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни урганишнинг долзарб муаммолари VII илмий-амалий конференция.7.(7)